New Day in Medicine
Новый День в Медицине
NDM

TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal

AVICENNA-MED.UZ

ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

9 (59) 2023

Сопредседатели редакционной коллегии:

Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
Н.Н. ЗОЛОТОВА
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х.ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV(Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com
E: ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН

НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ

NEW DAY IN MEDICINE

Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал

УЧРЕДИТЕЛИ:

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»

Национальный медицинский исследовательский центр хирургии имени А.В. Вишневского является генеральным научно-практическим консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных изданий, рецензируемых Высшей Аттестационной Комиссией Республики Узбекистан (Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

9 (59)

2023

сентябрь

Received: 20.08.2023, Accepted: 05.09.2023, Published: 15.09.2023.

UO‘K 619:616.995.132.6

AHOLINING PARAZITAR KASALLIKLAR HAMDA ULARNING OLDINI OLISH BO‘YICHA BILIM DARAJASINI O‘RGANISH NATIJALARI

Ibraximova H.R. Email: xamida.ibrahimova@mail.ru
Masharipova Sh.S. Email: shoxista1987urgench@mail.ru

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, O‘zbekiston, Xorazm viloyati, Urganch shahri, Al-Xorazmiy ko‘chasi 28-uy Tel: +998 (62) 224-84-84, +998919150030, E-mail: info@urgfiltma.uz

✓ ***Rezyume***

Aholining parazitar kasalliklar yuqish yo‘llari to‘g‘risidagi to‘g‘ri javoblari faqat so‘rov o‘tkazilganlarning 1/3 qismi ko‘rsatgan, bu esa ularning ushbu kasalliklarning yuqish yo‘llari to‘g‘risidagi bilim darajasi pastligini ko‘rsatadi. Mintaqada keng tarqalgan parazitar kasalliklar to‘g‘risidagi aholining bilim darajasi boshqalarga nisbatan yuqori (teniarinxoz 21,1%, askaridoz va lyamblioz 19,5yo1,4%, toksoplazmoz 17,8%yo1,4%); alimentar yo‘l bilan yuqadigan parazitar kasalliklar to‘g‘risidagi to‘g‘ri javoblar (iflos suv 29,2% go‘sht va baliq yuqadigan 32,9%) boshqa yuqish yo‘llaridan (tuproq va qum orqali 23,7%, kontakt yo‘li orqali 29,2%) ko‘p bo‘lganligi bilan e’tiborlidir.

Kalit so‘zlar: Gelmintlar, yuqish yo‘li, profilaktika, alimentar yo‘l, respondentlar.

ИТОГИ РЕЗУЛЬТАТОВ ИССЛЕДОВАНИЙ УРОВНЯ ЗНАНИЙ НАСЕЛЕНИЯ О ПАРАЗИТАРНЫХ БОЛЕЗНЯХ И ИХ ПРОФИЛАКТИКЕ

Ибрахимова Х.Р. Email: xamida.ibrahimova@mail.ru
Машарипова Ш.С. Email: shoxista1987urgench@mail.ru

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии, Узбекистан, Хорезмская область, город Ургенч, ул. Аль Хорезми – 28 Тел: +998 (62) 224-84-84, +998919150030, E-mail: info@urgfiltma.uz

✓ ***Резюме***

Только 1/3 опрошенных дали правильные ответы о путях передачи паразитарных болезней, что свидетельствует о их низком уровне знаний о путях передачи этих болезней.Уровень знаний населения о распространенных в регионе паразитарных болезнях высокая по сравнению с другими (тениариноз 21,1%, аскаридоз и лямблиоз 19,5±1,4%, токсоплазмоз 17,8%±1,4%); Примечательно, что правильных ответов о пищевых паразитарных болезнях (загрязненная вода 29,2 %, мясной и рыбный 32,9 %) больше, чем о других путях передачи (почвенно-песчаный 23,7 %, контактный 29,2 %).

Ключевые слова: Гельминт, путь заражения, профилактика, алиментарный путь, респонденты.

RESULTS OF RESEARCH ON THE LEVEL OF KNOWLEDGE OF THE POPULATION ABOUT PARASITIC DISEASES AND THEIR PREVENTION

Ibrakhimova H.R. Email: xamida.ibrahimova@mail.ru
Masharipova Sh.S. Email: shoxista1987urgench@mail.ru

Urgench branch of the Tashkent Medical Academy Uzbekistan, Khorezm region, Urgench city, Al-Khorezmi street No. 28 Tel: +998 (62) 224-84-84 E-mail: info@urgfiltma.uz

✓ ***Rezume***

Only 1/3 of the respondents gave correct answers about the transmission pathways of parasitic diseases, which indicates their low level of knowledge about the transmission pathways of these diseases. The level of knowledge of the population about parasitic diseases common in the region is high compared to others (teniarinosis 21.1%, ascaridosis and giardiosis 19,5±1,4%, toxoplasmosis 17,8%±1,4%); Notably, there are more correct answers about food parasitic diseases (contaminated water 29.2%, meat and fish 32.9%) than about other transmission routes (soil-sand 23.7%, contact 29.2%).

Keywords: Helminths, route of infection, prevention, alimentary route, respondents.

Dolzarbligi

Hozirgi kunda odamlar, hayvonlar va o‘simliklarning hisobiga yashovchi parazitlarning 15 mingdan ziyod turi ma’lum va insonlarda ko‘proq askaridalar, ostritsalar, qilbosh gijjalar uchraydi [1,4]. Aholining sog‘lig‘ini belgilovchi omillardan biri ijtimoiy jihatlar bilan bog‘liq kasalliklar, jumladan protozoonoz va gelmintlar bo‘lib, ularning barchasi parazitar kasalliklarning 99% ni tashkil etadi [5].

Gelmintlar odam organizmining nafas olish, ovqat hazm qilish, muskullari, jigar, o‘t pufagi, taloq, qon, miya, ko‘z va boshqa a’zolarida parazitlik qiladi. Dunyoning turli mamlakatlarida gelmintoz kasalliklarining oshishi chiqindi suv oqimi natijasida gelmint tuxumlari bilan atrof-muhit ifloslanishi, aholi migratsiyasi, hayvonlar bilan odam muloqotining ortishi, past ijtimoiy-iqtisodiy hayot darajasi, aholi immun tizimining zaiflashuvi natijasidir [1].

Ilmiy manbalarda e’tirof etilishicha, odam va hayvonlarning a’zo va to‘qimalari hisobiga yashovchi gijjalar (gelmintlar), ular keltirib chiqaradigan kasalliklar gelmintozlar deyiladi. Kasallik manbai bemor odam va gijjalar bilan zararlangan hayvonlar hisoblanadi [3, 5, 8].

Parazitizm (grekcha parasitos - tekinxo‘r, hamtovoq) har xil turga mansub organizmlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardan biridir. Bunda organizmlardan biri (parazit) ikkinchisidan (xo‘jayin) yashash muhiti va oziqa manbai sifatida foydalanib, unga zarar yetkazadi. Parazitlar bir hujayrali (sarkomastigofora, sporali, knidosporidiya, mikrosporidiya va infuzoriyalar) hamda ko‘p hujayrali hayvonlardan (yassi chuvalchanglar, tikanboshlilar va bo‘g‘imoyoqlilar) tiplari tarkibida uchraydi [6].

Bolalar parazitlarga nisbatan aholining zaif toifasi ekanligi aniqlangan. Bu, bir tomondan, sanitariya-gigiyena me’yorlariga rioya qilishning quyi darajasiga, ikkinchi tomondan, parazitar invaziya natijasida jadal o‘sish va rivojlanishning pasayishi bilan bog‘liq. Bolalikda parazitlar invaziyasiga ko‘pincha ovqatlanishning surunkali buzilishi, oshqozon-ichak disfunksiyasi, intoksikatsiya, organizm sensibilizatsiyasi va immun tizimining zaiflashuviga olib keluvchi omillar sabab bo‘ladi. Gelmint lichinkalari ko‘chib visseral membranalar, miya, ko‘z, o‘pka va asab tizimiga zarar yetkazishi mumkin. Lichinka migrantlarning 5-7% i miyaga kiradi, 30 dan ortiq parazit turlarining lichinkalari o‘pka to‘qimasiga ta’sir qiladi [2, 3, 9].

Yuqorida qayd yetilgan muammolar O‘zbekiston Respublikasida ham dolzarb bo‘lib [7, 8], adabiyotlarda bu muammoga bag‘ishlangan ilmiy manbalar kam. Parazitozning ekologik masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar, kelib chiqish omillarini aniqlash, laboratoriya tashxisi, muammolarning istiqbolini belgilash va parazitar kasalliklarning oldini olishga konseptual yondashuv yetarli emas.

Tadqiqotning maqsadi: Aholining parazitar kasalliklar hamda ularning oldini olish bo‘yicha bilim darajasini o‘rganishdan iborat.

Material va usullar

Xorazm viloyatining uchta tumani va u yerda istiqomat qiluvchi maktab yoshidagi 774 nafar o‘rganilgan bolalarning ota-onalari tasodifiy tanlash yo‘li bilan tanlab olindi. Tanlab olingan 774 nafar bolalarning ota-onalari orasida ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi, parazitar kasalliklar bilan kasallanish holati o‘rganildi, parazitar kasalliklar, ularning klinik belgilari, yuqish yo‘llari va boshqa jihatlar bo‘yicha tibbiy bilimlari darajasi aniqlandi. Turli yuqumli kasalliklar profilaktikasi bo‘yicha aholi, shu jumladan bolalar va ular ota-onalari bilim darajasining yuqori bo‘lishi ushbu kasalliklar birlamchi profilaktikasi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lganligini hisobga olgan holda parazitar kasalliklar birlamchi profilaktikasi bo‘yicha ular bilim darajasini o‘rganish va tahlil qilish maqsadida ota-onalar uchun to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblardan iborat maxsus anketa tayyorlandi.

Natija va tahlillar

Yuqumli kasalliklar qo‘zg‘atuvchilari orasidan parazitar kasalliklar qo‘zg‘atuvchilarini tanlab, ko‘rsatish kerak bo‘lganda respondentlar fikri turlicha bo‘ldi va faqat 34,4yo1,7% (n=266) ota-onalar

to‘g‘ri javobni ko‘rsatishdi. O‘rganilganlarning 65,6yo1,7% i shu savollarga noto‘g‘ri javob berishgan. So‘rovga jalb qilinganlarning 26,4yo1,6% i (n=204) parazitar kasalliklarni bakteriyalar, 24,4yo1,5% i (n=189) viruslar chaqiradi deb hisoblashsa, 14,8yo1,3% (n=115) holatda zamburug‘lar chaqiradi, degan javob olindi.

Yana bir elementar savollardan biri bu “Qaysi parazitar kasalliklarni bilasiz?” degan savol bo‘lib, unda 10 ta yuqumli kasallik nomi keltirilgan va ularning faqat ikkitasi to‘g‘ri javob bo‘lib (enterobioz va gimenolepidoz), qolganlari noto‘g‘ri javob sifatida talqin etildi. Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 22,5yo1,5% i (n=174) parazitar kasallik sifatida enterobiozni, 8,9yo1,0% i (n=69) esa gimenolepidozni to‘g‘ri ko‘rsatishgan. Parazitar kasalliklarga aloqasi bo‘lmagan yuqumli kasalliklarni shu guruhga kiradi, deb belgilagan respondentlar soni 531 nafarni (68,6%) tashkil etgani e’tiborli holat.

Parazitar kasalliklar birlamchi profilaktikasi uchun ushbu kasalliklarning yuqish yo‘llarini bilish aholi uchun muhimligini hisobga olib, shu borada ularning bilim darajasini tekshirishni lozim topdik. Buning uchun ma’lum yuqish yo‘liga ega kasalliklarni keltirilgan 10 ta parazitar kasalliklar orasidan topish zarur edi.

Parazitar kasalliklar tibbiy-ijtimoiy jihatlarini tavsiflovchi aholining bilim darajasini baholovchi xususiyatlaridan biri - bu ularning parazitar kasalliklarga xos klinik ko‘rinishlarni farqlay olishdir. Parazitar kasalliklarga xos klinik simptomlarni bilish jarayonini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning kattagina qismi (30,7yo1,7%, n=238) spetsifik simptom sifatida bemorlarning tishlarini g‘ijirlatishlarini ko‘rsatishgan, shuningdek parazitar kasalliklarga xos belgi sifatida ko‘ngil aynishi (21,2yo1,5%, n=1,64), kindik atrofida og‘riq alomatlari kuzatilishi (22,2yo1,5%, n=172), teriga oq dog‘lar tushishi (21,2yo1,5%, n=164), ichak funksional holatining buzilishi (20,5yo1,5% n=159) ham ko‘rsatilgan. Shuningdek so‘lak oqishi (10,9yo1,1%, n=84), tutqanoq tutishi (10,2yo1,4%, n=79), teri rangining sarg‘ayishi (8,3yo10%, n=64), og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati zararlanishi - stomatit (4,8yo0,8%, n=37) belgilari to‘g‘risida ma’lumotga ega ekanliklarini ko‘rsatishgan.

Tadqiqotimiz davomida parazitar kasalliklar birlamchi profilaktikasining asosi bo‘lgan yuqish yo‘llariga mos holda konkret profilaktik tadbirlardan habordor bo‘lishlari o‘rganildi. Olingan natijalar respondentlar bergan savollarga javoblarni o‘rganish va taxlil qilish ko‘rinishida keltirildi. Har bir yuqish yo‘llariga mos, halq orasida keng tarqalgan davolash profilaktika muassasalari, sog‘liqni saqlash tashkilotlariga bog‘liq bo‘lgan maxsus profilaktika usullarini o‘z ichiga olmagan oila sharoitida bajarilishini iloji bo‘lgan kundalik hayotda ishlatiladigan birlamchi profilaktika usullari keltirildi hamda ularni bilish darajasi tahlil qilindi. Go‘sht va baliq mahsulotlari orqali yuqadigan parazitar kasalliklarning birlamchi profilaktikasiga doir savollar so‘ralganda, sanitar tekshiruvdan o‘tgan go‘sht mahsulotlarini iste’mol qilish (78,6yo1,5%, n=608), go‘sht mahsulotlarini termik ishlov berilgandan keyin iste’mol qilish (68,2yo1,7%, n=528), termik ishlov berilmagan konserva va dudlangan go‘sht mahsulotlarini imte’mol qilmaslik (72,4yo1,6%, n=560) ko‘pchilik tomonidan e’tirof etildi. Ushbu savollarga javobni belgilamaganlar bu qoidalar doim ham amal qilmaganliklari sababli belgilashmagan.

Shunga o‘xshash parazitar kasalliklar birlamchi profilaktikasiga doir so‘rov-intervyu natijalari boshqa yuqish yo‘llari, chunonchi uy hayvonlari orqali yuqadigan parazitar kasalliklarni oldini olish bo‘yicha tadqiqot natijalari,parazitar kasalliklarga berilmaslik uchun ratsional ovqatlanish zarurligi (89,9yo1.1%, n=696), parazitar kasalliklar paydo bo‘lganda shifokorga tez murojaat qilish kerakligi (85,9yo1,1%, n=696), uy hayvonlarini parvarishlaganda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish lozimligi (85,4yo1,3%, n=661) ko‘pchilik tomondan e’tirof etildi.

Kontakt yo‘li bilan yuqadigan parazitar kasalliklar birlamchi profilaktikasiga oid tadbirlarni bilish darajasi ham yuqoridagilarga o‘xshash bo‘ldi. Keltirilgan 10 ta tadbirdan 5 tasiga (50%) berilgan javoblar yuqori foizlarda bo‘lgan bo‘lsa (76,1-99,5%) qolgan 5 tasiga javoblar foizi 9,9-45,3%) kam miqdorda bo‘ldi.

Javob bergan respondentlarning ko‘pchiligi aholining tibbiy madaniyatini pastligini tan olganlar (90,4%yo1,1%, n=700) maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning sanitar madaniyati pastligini (79,1yo1,5%, n=612) ko‘rsatib o‘tganlar, parazitar kasalliklarga shubha tug‘ilganda o‘zicha noto‘g‘ri davolanishni (78,8yo1,5%, n=610) belgilaganlar. Qolgan 7 tadbirning ko‘pchiligi javob berish uchun maxsus tayyorgarlik zarur bo‘lganligi sababli javoblar foizi past bo‘lgan - mos ravishda 12,4yo1,2% dan (n=96) 28,3yo1,6% gacha (n=219).

So‘rov o‘tkazilgach, olingan ma’lumotlar asosida respondentlardan parazitar kasalliklar va ularning birlamchi profilaktikasi bo‘yicha o‘z bilim darajalariga tanqidiy yondashib, uni baholashlari so‘raldi.

So‘rov o‘tkazilganlarning 1/3 qismi bilish darajalarini “past”, deb baholaganlar (32,6yo1,7%, n=252), ko‘pchiligi “o‘rta” baho berganlar (64,7yo1,7%, n=501) juda kam qismigina o‘ziga “yuqori” baho berishgan (2.7yo0,6%, n=21). Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, aholining asosiy qatlami o‘zining parazitar kasalliklar haqidagi bilish darajasini past baholagan.

Respondentlardan “Odam salomatligini saqlash uchun parazitar kasalliklar haqida bilish ahamiyatlimi?” deb so‘ralganda ularning aksariyat qismi (78,9yo1,5%, n=611) ijobiy javob berishdi, faqatgina 9,1yo1,0%%, n=70) “ahamiyatsiz” deb hisoblashdi. So‘rov o‘tkazilganlarning 12,0yo1,2%, (n=93) bu savolga javob berishga qiynalishlarini bildirishdi.

Tahlillar: Olingan natijalardan quyidagi xususiyatlar aniqlandi:

birinchidan, aholining parazitar kasalliklar yuqish yo‘llari to‘g‘risidagi to‘g‘ri javoblari faqat so‘rov o‘tkazilganlarning 1/3 qismi ko‘rsatgan, bu esa ularning ushbu kasalliklarning yuqish yo‘llari to‘g‘risidagi bilim darajasi pastligini ko‘rsatadi;

ikkinchidan, mazkur mintaqada keng tarqalgan parazitar kasalliklar to‘g‘risidagi bilim darajasi boshqalarga nisbatan yuqori (teniarinxoz 21,1%, askaridoz va lyamblioz 19,5yo1,4%, toksoplazmoz 17,8%yo1,4%);

uchinchidan, alimentar yo‘l bilan yuqadigan parazitar kasalliklar to‘g‘risidagi to‘g‘ri javoblar (iflos suv 29,2% go‘sht va baliq yuqadigan 32,9%) boshqa yuqish yo‘llaridan (tuproq va qum orqali 23,7%, kontakt yo‘li orqali 29,2%) ko‘p bo‘lganligi bilan e’tiborli;

to‘rtinchidan, olingan natijalar bo‘yicha bu holat parazitar kasalliklar birlamchi profilaktikasi amaliy jihatdan o‘tkazilmaganini, mavjud bilim va ko‘nikmalar faqat kasallikni boshidan kechirish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Olingan natijalar aholi ayniqsa uning sezgir qismi bo‘lgan bolalar orasida parazitar kasalliklar birlamchi profilaktika masalalari oqsayotganini ko‘rsatdi. O‘tkazilgan qiyosiy tahlil ushbu kasalliklar birlamchi profilaktikasida aholining parazitar kasalliklar hamda ular birlamchi profilaktikasi to‘g‘risidagi bilim darajasini oshirish muhim o‘rin tutishi isbotlandi. Birlamchi profilaktik tadbirlarida parazitar kasalliklar bo‘yicha aholi bilim darajasini ko‘tarish qulay, arzon, maxsus malaka va tayyorgarlik talab etmaydi, ta’sir darajasi uzoq vaqt saqlanadi, ota-onalar tomonidan bu malaka va ko‘nikmalarni o‘z bolalariga singdirishlari tibbiy, ijtimoiy-iqtisodiy samaraning yuqori bo‘lishini ta’minlaydi, parazitar kasalliklar kamayishi iqtisodiy samara keltiradi. Shu jumladan uyushgan bolalar (maktabgacha muassasa tarbiyachilari, maktab bolalari) orasida parazitar kasalliklar va ularning birlamchi profilaktikasi to‘g‘risida o‘tkaziladigan tadbirlar ushbu bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi, bu esa aholi tibbiy bilim darajasi oshishiga ,bolalar orasida parazitar kasalliklar kamayishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Алёхина Н.А., Соколова Я.О., Исмаилова З.М., Мартынова О.В., Кенембаева А.С. Паразитарная чистота объектов окружающей среды Астраханской области за 2014-2016 годы // Электронный журнал «Концепт». 2017;39:2711-2715.
2. Axatova G.X., Nazarova U.X., Tursunova X.N. Совершенствование эффективности применения профилактических мероприятий у детей по снижению заболеваемости гельминтозами // Молодой ученый. 2017;16:25-27.
3. Ершова И.Б., Мочалова А.А., Лохматова И.А., Монашова М.Г., Петренко О.В. Неспецифические проявления гельминтозов у детей // Здоровье ребенка. 2015;8(68):45-50.
4. Жарнова В.В., Жмакин Д.А., Никитин В.Ф. Клинико-эпидемиологическая картина трихинеллеза в Гродненской области // Российский паразитологический журнал. - Москва, 2015;4:38-42.
5. Лысенко А.Я., Владимова М.Г., Кондрашин А.В., Майори Дж.Клиническая паразитология. Руководство. - Женева, ВОЗ, 2002;752.
6. Марушко Ю.В., Грачева М.Г. Современное состояние проблемы гельминтозов у детей. Вопросы диагностики и лечения // Современная педиатрия. - Киев, 2012;3(43):1-5.
7. Мухитдинов Ш.Т., Жураева Ф.Р. Проблемы гельминтозов среди детей до 14 лет и организационные методы борьбы с ними в первичном звене здравоохранения // Международний науковий журнал «Інтернаука». 2017;6(28):30-32.
8. Норкулова Г.С. Гельминтозы у детей: частота и причины // European research: Innovation in science, education and technology XXVIII International scientific and practical conference // London. United Kingdom. 2017;73-74.
9. Пекло Г.Н., Степанова Т.Ф., Панарина П.В. Серологический мониторинг трихинеллеза в Тюменской области // Эпидемиология и Вакцинопрофилактика. 2010;1(50):30-33.

Qabul qilingan sana 20.08.2023